



TURKIY XALQLAR FOLKLOR ASARLARINING TO'PLANISH TARIXI

Matkarimova Kumushbibi Amongaldi qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklorning xalq ma'naviy hayotidagi ahamiyati, turkiy xalqlarga oid folklor namunalarining to'planishi tarixi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, turkiy xalqlar folklorini to'plashda katta hissa qo'shgan shaxslar faoliyatiga to'xtalib, xalq og'zaki ijodini to'plash muammolariga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: folklor san'ati, turkiy xalqlar folklori, til imkoniyati, og'zakilik, variantlilik, alla, erkalama, aytim, topishmoq, tez aytish, ertak va qo'shiqlar.

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalq va Vatan tarixi, adabiy, ilmiy va madaniy merosning qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan ildizlarini chuqur va xolisona o'rganish imkoniyatlari maydonga keldi. Shuning natijasida turkiy xalqlarning qadimgi davrlarda yaratgan adabiy-badiiy yodgorliklarini izlash, ularning namunalarini aniqlash, tahlil va talqin qilish ishlari ham jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, turkiy xalqlarning qadimgi tarixi va madaniyati jahon turkiyshunos olimlarini anchadan beri qiziqtirib kelmoqda. Bu sohada turli tillarda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, mavjud bo'lgan, aniqlangan yodgorliklar nashr ettirilgan, tarjima ham qilingan. Shuning bilan bir qatorda turkiy xalqlar og'zaki ijodining go'zal namunalari bo'lgan rivoyat, afsona, doston va boshqa janrlardagi asarlari ham umumlashtirishni taqozo etadi²⁰.

Shunisi ham borki, turkiy xalqlarning qadimiy tarixiy va adabiy yodnomalarining ko'p qismi saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ularning ayrimlari yunon, xitoy, arab, fors, german, slavyan xalqlari tillarida bitilgan tarixiy-adabiy yodgorliklarda o'ziga xos tarzda ifodalangan holda saqlangan. Bularning hammasini o'rganish, tartibga solish, ma'lum bir xulosalarga kelish esa nihoyatda ko'p mehnat va uzluksiz izlanishlarni talab etadi. Bunday ishni amalga oshirish esa turkiy xalqlar qadimgi adabiyoti tarixini yaratishga qo'yilgan jiddiy qadam sanaladi.

Turk xalq mifologiyasi dunyo mifologiyasi tarixida eng qadimiy va boyligi bilan ajralib turadi. Bunday miflar esa turkiy xalqlarning miloddan avvalgi va milodiy davrlarda yashagan geografik hududlarning ulkanligidan dalolat beradi. Turk mifologiyasining eng muhim jihati turk tilida ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Shu sababli ham turkiy madaniyatning bir qismi sanalgan og'zaki adabiyotdagi dostonlar, afsonalar, masallar, maqollar, iboralar, maqtoqlar, topishmoqlar singari janrlardan turk miflariga oid ishonarli va qimmatli ma'lumotlarni topishimiz mumkin²¹.

²⁰ Отажоновна М. Ҳозирги ўзбек насрида мифологик архетиплар // Илм сарчашмалари. 2016-10. –Б.73

²¹ Абаева Т.Г. Нуристон қабилаларининг афсона ва урф-одатлари. Т-1969. –Б.11-12.



Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'ziga mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu an'alar ichida ulg'aygan, uning ongi, shurri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Har bir sohaning o'z tarixi bo'lgani kabi, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi.

Xalqimizning eng qadimiy hayotbaxsh milliy qadriyatlaridan biri folklor san'atidir. Bu san'at badiiy an'analari tizimi sifatida xalqimizning ilg'or umuminsoniy g'oyalarini takomillashtirib, kelajakka umid, ezgulik, mehr-sahovat, insoniylik, vatanparvarlik bilan bog'liq milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Folklor san'ati merosini chuqurroq tatqiq etish, bugungi zamondoshlarimiz ma'naviy ehtiyojini qondirishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi xalq og'zaki ijodi folklorshunoslikning nodir manbalaridan hisoblanadi. Turkiy xalqlar folklor asarlari ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug' ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, an'analari-yu o'zbekona samimiyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishish ostonasida birinchi Prezidentimiz tomonidan ko'plab hayotbaxsh farmonlar bilan bir qatorda, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va Navro'z bayramini qayta tiklanishi xalqimizning ma'naviy hayotida katta iz qoldirdi. Shubhasiz, aytish mumkinki, bugun mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy sohada nimaiki yutuqlarga, yuksalishlarga erishgan bo'lsa, ana shu say-harakatlarning alohida o'rni bor. Zero, til millat tafakkurini shakllantiruvchi bir mezonidir. Til va tafakkur bir-biriga bog'liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asarlarida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Zero, ma'naviyat masalari hamma davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan²². XX asr boshida ma'rifatparvar jadidchilar til, adabiyot va tarbiya masalasi o'z davri uchun muhimligini ta'kidlashgan. Bu bejizga emas, millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri – ma'naviyatidan boshlanadi. Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz. Tilimizga, madaniyatimizga, o'zligimizga bo'layotgan ma'anaviy tahdid ko'lami ham globaldir.

Biz ma'naviyat to'g'risida har qancha qayg'urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta'sirida hamda bolalarimiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan, bizning qilayotgan barcha urinishlarimiz o'z

²² Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -56 б.



samarasini bermaydi. Shu ma'noda bugungi folklorni o'rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson m a'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalqning til boyligi birinchi navbatda uning folkorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi.

Og'zakilik, variantlilik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini urg'ulaydi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor shunchaki so'z san'ati namunasigina emas, balki xalqning til zaxirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi tarixining ilk davrlari o'rganilganda turkiylar nomi bilan shuhrat qozongan ko'plab xalqlarning madaniyatiga murojaat qilish o'rinlidir. Chunki bugungi kunda mustaqil millat sifatida shakllangan o'zbek, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, ozarbayjon, gagauz, usmonli turk, tatar, yoqut va boshqa xalqlar qadimgi turkiylarning avlodlaridir. Qadimgi turkiylarning yuzaga kelishi muqaddas kitoblardan biri "Injil"da, shuningdek, ko'plab afsonalarda Nuh payg'ambarning farzandi Yofas nomi bilan bog'lanadi. "Injil"da Yofasning Gomer, Ma'juj, Go'merning esa Ashkanoz ismli o'g'illari bo'lganligi ko'rsatiladi.

Fanda Gomer turkiylarning kimmer, Ma'juj – Gog va Mago'g, Ashkanoz – skif qavmlarining paydo bo'lishiga asos bo'lgani aytilgan. Tarix otasi Gerodot (miloddan avvalgi II asr) "Tarix" asarining to'rtinchi kitobida skiflar va ularga yaqin qavmlarning turmush tarzi, hayoti bilan bog'langan rivoyat hamda afsonalarni keltiradi, skiflarning forslar bilan urushlarini ko'rsatadi²³.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodining qadimgi davrlarini tiklash va o'rganish uchun yetarli asoslar bor, bularni davrlarga bo'lib ko'rish mumkun.

Ijtimoiy-siyosiy aloqalar, tildagi so'z, ibora va atamalar, diniy tushuncha, tafakkurlarning yaqinligi hamda bir xilligi jihatidan antik davrdagi ayrim xalqlarning madaniyati va adabiyotida turkiylarga xos umumiy tipologik yaqinliklar bor. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milodimizdan avvalgi uch minginchi yillarda Kichik Osiyoda yashagan shumerlarning diniy tasavvurlari, tili va adabiy qarashlarida mushtaraklik seziladi. Yoki hozirgi O'zbekiston hududida islomga qadar mesopotamiyaliklarning qishloqlari bo'lganligi to'g'risida arab tarixchilari yozib qoldirganlar ma'lumotlar ham qimmatlidir.

²³ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Изд. "Наука" Ленинград. 1974.



Eng qadimgi davrlardan islomgacha yashagan tarixchilarning asarlarida turkiylarning ajdodlari – iskit, kimmer, sak, massaget va boshqa qavmlarning tarix maydoniga kelishi, orzu-umidlari, qahramonligi va turli xil turmush urinishlari haqida saqlangan barcha asotirlar, afsona va rivoyatlar turkiylarga mansub millatlar uchun teng darajada xizmat qiladigan adabiy yodgorlikdir.

Antik davr adabiyoti, jumladan, yunon adabiyotida turkiy xalqlar hayoti yoritilgan asarlar ham mavjud. Shuningdek, bu adabiyotda turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan rivoyat hamda afsonalardan ham foydalanish yoki turkiy adabiy syujetlarning ko'chib o'tishi an'analari seziladi.

Har bir xalqning o'ziga xos shakllanish jarayoni mavjud. Turkiy qavmlarning ham bir necha millat sifatida shakllanishi shunday xususiyatga ega. Qadimgi Xitoy yilnomalari, Urxun yodgorliklari, Rashididdinning "Jome' ut – tavorix", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarai turk", "Shajarai tarokima", Hasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" kabi asarlarida bu masala tarixiy nuqtayi nazardan chuqur yoritilgan. Turkiy xalqlarning ibtidoiy shakllanish davrlari – qavmlarga nom qo'yish, ularga dono urug' boshlig'ining otalik qilishi ko'plab badiiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan²⁴.

O'rxun-Enasoy tosh bitiklarining topilishi qadimgi turkiy yozma adabiyot mavjud bo'lganligining beqiyos namunasi. Bu bitiklarda aks etgan badiiy tasvir, g'oya halq og'zaki ijodida yaratilgan asarlar bilan hamohang turadi. Osmonni muqaddas tangri deb tushunish turkiylar uchun hamma davrlarga xos xususiyat bo'lgan va islomgacha bu ta'limot o'z qimmatini yo'qotmagan.

XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo'shiq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, "Devonu lug'otit turk" asariga kiritganligini eslash kerak bo'ladi. Shuningdek, maqol va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini o'rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyalarini "Qissasi Rabg'uziy"ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy, o'zbek xalq she'riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug' o'zbek shoiri to'g'risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o'zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zi tuzgan lug'atda xalq qo'shiqlaridan misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy-o'zbek folklori asarlarining ilk to'plovchilari edilar.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarini yozishdan avval u uzoq yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to'plagan. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z

²⁴ Seyidoğlu B. "Efsane". Türk Dünyası El Kitabı, C. III, TK Yayınları, Ankara.1992



xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlami ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim"²⁵.

Keng ko'lamli to'plovchilik faoliyati olib borgan Mahmud Koshg'ariy o'zining ana shu safarlari chog'ida faqat lug'at uchun lisoniy materiallar to'plash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalari ham yozib olgan, Buni olimning "men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida foydalanilib kelingan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa, o'z navbatida, shu tilda so'zlovchilarga yetkazsin". Demak, Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar folklorining qo'shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to'plagan.

Xullas, XI asrning yirik filolog olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar shevasiga oid lisoniy manbalarni to'plash barobarida, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, qo'shiqlar, mif, afsona, rivoyat va naqlar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e'tiqodiy ishonchlar hamda mifologik tasavvurlarga doir boy materiallarni yozib olgan.

Xalqimizning betakror ijodiy salohiyatini yuksak qadrlagan Alisher Navoiy ham o'z davri folklorining deyarli barcha janrlariga oid qadriyatlardan samarali foydalangan. Shu bois, shoir asarlarida XV asr o'zbek folklorining janrlar tizimiga doir afsona, qissa, rivoyat, ertak, hikoyat, doston, ulug'ir, ayolg'u, qo'shiq, surud, o'zmog', chang, changa singari atamalar ko'p qo'llanilgan.

Turkiy xalqlarning qadimgi davrlarda yaratgan adabiy-badiiy yodgorliklarini izlash, ularning namunalari aniqlash, tahlil va talqin qilish ishlari tarixining o'zi ham qadimiy va qiziqarli, tadqiqini kutayotgan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. –Т.: "Ўзбекистон", 2017. -56 б.
2. Отажонова М. Ҳозирги ўзбек насрида мифологик архетиплар // Илм сарчашмалари. 2016-10. –Б.73
3. Абаева Т.Г. Нуристон қабилаларининг афсона ва урф-одатлари. Т-1969. – Б.11-12.

²⁵ P. Kenjayeva. Turk folklori. –Т.: "Sharq", 2020. 53-b.



4. P. Kenjayeva. Turk folklori. –T.: "Sharq", 2020. 53-b.
5. Boratov P.N. Türk Efsaneleri. Folkloru Doğru. Ankara:1974.
6. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Изд. "Наука" Ленинград. 1974.
7. Seyidoğlu B. "Efsane". Türk Dünyası El Kitabı, C. III, TK Yayınları, Ankara.1992.